

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.San.54.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

**NAIMOV MUZAFAR URINOVICH**

**O‘ZBEK MAROSIM QO‘SHIQLARI  
(XX ASR JANUBIY O‘ZBEKISTON (SURXON)  
VOHASI MISOLIDA)**

**17.00.02- Musiqa san’ati**

**San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**San’atshunovlik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по искусствоведению**

**Content of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)  
on art history**

**Naimov Muzafar Urinovich**

О‘zbek marosim qo‘shiq-lari (XX asr Janubiy O‘zbekiston  
(Surxon) vohasi misolida)..... 3

**Наимов Музафар Уринович**

Узбекские обрядовые песни (На примере Южного Узбекистана  
(Сурханского) региона XX-века) ..... 21

**Naimov Muzafar Urinovich**

Uzbek traditional songs (The XX century is on the example  
of the southern Uzbekistan oasis) ..... 39

**E‘lon qilingan ilmiy ishlar**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 43

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.San.54.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

**NAIMOV MUZAFAR URINOVICH**

**O‘ZBEK MAROSIM QO‘SHIQLARI  
(XX ASR JANUBIY O‘ZBEKISTON (SURXON)  
VOHASI MISOLIDA)**

**17.00.02- Musiqa san’ati**

**San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.1.PhD/San45 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.konservatoriya.uz](http://www.konservatoriya.uz)) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullayev Rustambek Samigovich,**  
san’atshunoslik fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Shodmonov Nafas Namozovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Qosimxojayeva Saida Botirovna**  
san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Yunus Rajabiy nomidagi**  
**O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03.30.12.2021.San.54.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, B.Zokirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 244-46-53; faks: (99871) 244-53-20; E-pochta: [info@konservatoriya.uz](mailto:info@konservatoriya.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat konservatoriyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 244-46-53. Faks (99871) 244-53-20, E-pochta: [info@konservatoriya.uz](mailto:info@konservatoriya.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023 yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**T.B.G‘ofurbekov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,  
san’atshunoslik fanlari doktori, professor

**B.Sh.Ashurov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**M.A.Hamidova**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
san’atshunoslik fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahon olimlari tomonidan ulug' ajdodlar san'ati tarixini o'rganish asosida Sharq xalqlari san'atida alohida o'rin egallagan milliy marosim qo'shiqlarini ilmiy-nazariy tahlil qilish orqali ulardagi o'ziga xoslik va umuminsoniy jihatlar o'zlashtirib kelinmoqda. Musiqiy meros va uning tarixiy, nazariy va amaliy asoslari folklor san'atining benazir qadriyatlari sifatida jahon musiqashunosligida muayyan darajadagina o'rganilganligi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo musiqa ilmida milliy marosim qo'shiqchiligining ilmiy, musiqiy-nazariy jihatlarini tadqiq etish, musiqa folklori durdonalarini o'rganish musiqashunoslikning tadqiq etiladigan masalalaridan biri bo'lib, an'anaviy san'atga va madaniyatiga ko'proq e'tibor bergan holda nomoddiy madaniy merosning musiqiy xususiyatlari kam o'rganilganligi inobatga olib, maxsus ilmiy tadqiqot olib borishligini taqozo etmoqda.

Yurtimizda madaniyat, xususan, musiqa san'atini rivojlantirishga, milliy madaniyatimiz, vohalarga xos marosim qo'shiqlari, ijrochilik an'analarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Tengsiz ma'naviy boyligimiz bo'lmish mumtoz san'atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg'or fikrli olimlar va san'atkorlarning, davlat va jamoat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir" - deya ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.<sup>1</sup> Demak, folklor san'atiga xos ijro uslublarida yaratilgan musiqiy namunalarni tahlil qilish, parda va usul xususiyatlarini bilish, o'zbek xalqining muayyan vohalari musiqa san'atining kam o'rganilgan muammolarini tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi PQ-3391-son "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 28 noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 apreldagi 304-son "Baxshichilik va dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. O'tmishning aks sadosi, bugungi kunning jarangdor ovozi. "Xalq so'zi", 2019. 7 aprel, № 68 (7298). – B.1.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyo olimlarining tadqiqotlarida marosim va musiqa, janrlar tarkibi, ichki qonuniyatlari, shakl tuzilishi va ijrochilik an'analarning xususiyatlari, semantikasi singari masalalar yoritib kelinmoqda. Marosim va urf-odatlar, udum va bayramlarning shakllanishi, o'rni va bevosita adabiyot va san'at turlari bilan bog'liqligi Ye.Anichkov, V.N.Basilov, A.M.Belenitskiy, Boys Meri, B.G.Yerzakovich, I.I.Zemtsovskiy, M.B.Kenin-Lopsan, L.I.Klimovich, N.S.Lobacheva, V.Ya.Propp, B.N.Putilov, G.P.Snesarev, V.Terner, K.V.Chistov, V.P.Anikin<sup>2</sup>; etnomadaniy qadriyatlar, marosim va urf-odatlar, bayramlar, xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari, yuzaga kelish sabablari, tasniflash masalalari Hodi Zarif, M.Raxmonov, T.Mirzaev, M.Murodov, B.Sarimsoqov, M.Sattorov, M.Jo'raev, M.Alaviya, M.Qodirov, O'.Qoraboev, I.Jabborov, G'.Nadjimov, H.Ismoilov, Q.Nasriddinov, T.Jovlievlarning<sup>3</sup> ilmiy ishlarida yoritilgan. Bundan tashqari, xalq musiqasi ijodiyotidagi turli yo'nalishlar bo'yicha V.Uspenskiy, Ye.Romanovskaya, V.Belyaev, I.Akbarov, F.Karomatli, Q.Olimboeva-Ahmedova, M.Ahmedov, T.G'ofurbekov, J.Rasultoev, O.Matyoqubov, R.Abdullaev, R.Yunusov, O.Ibrohimov, S.Begmatov, K.Juzbasov, B.Kokumbaeva, G.Baytenova, K.Tuleutaev, L.Salimova, N. Toshtemirov, K. Panjiev, M.G'ofurov<sup>4</sup> kabi O'zbekiston va Markaziy Osiyo olimlari ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Surxondaryoda yashaydigan xalqlar etnogenezi, moddiy va nomoddiy madaniy merosining muayyan jihatlari L.N.Gumilyov,

---

<sup>2</sup> Аникин В.П. Календарная и свадебная поэзия. М.,1970; Аничков Е. Весенняя обрядовая песня на Западе и у славян.СПб.,б.г; Басилов В.Н. Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. М., 1986; Беленицкий А.М. О домусульманских культах в Средней Азии. М.,1949; Бойс Мэри. Зороастрийцы. Верования и обычаи. М., 1987; Ерзакович Б.Г. Песенная культура казахского народа. Музыкально-историческое исследование. Алма-Ата,1966; Земцовский И.И. Мелодика календарных песен. Л.,1975; Кенин-Лопсан М.Б. Обрядовая практика и фольклор тувинского шаманства. Конец XIX-начало XX в. Новосибирск, 1987; Климович Л.И. Праздники и посты ислама. М.,1941; Лобачева Н.С. Формирование новой обрядности узбеков .М.,1975; Пропп В.Я. Фольклор и действительность. М.,1976; Путилов Б.Н. Миф. Обряд. Песни Новой Гвинеи. М., 1980; Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. М., 1969; Тернер В. Символ и ритуал. М., 1983; Чистов К.В. Народные традиции и фольклор. Очерки теории. Л.,1986.

<sup>3</sup> Rahmonov M.R. O'zbek teatri tarixi (XVIII asrdan XX asr avvaligacha). Toshkent, 1968; O'zbek teatri: Qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. Toshkent, 1975. Qodirov M.X. O'zbek xalq og'zaki dramasi. Toshkent, 1963; O'zbek xalq tomosha san'ati. Toshkent, 1981; Наджимов Г. Народные традиции и культура. Ташкент, 1992; Jabborov I. O'zbeklar: turmush tarsi va madaniyati. Toshkent, 2003; Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. Toshkent, 1986; Sattorov M. O'zbek udumlari. Toshkent, 2004; Qoraboyev O'. O'zbek bayramlari. Toshkent, 1991; Murodov M., Qoraboyev O', Rustamova R. Etnomadaniyat. Toshkent, 2003; Jo'rayev M. O'zbek mavsumiy marosim folklori. Toshkent, 2008; Navro'z bayrami. Toshkent, 2009; Jo'rayev M., Xudoyqulova L. Marosimnoma. Toshkent, 2008; Mirzaev T. Народная поэзия Узбекистана. Л., 1990; Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. Toshkent, 1974.

<sup>4</sup> Успенский В., Беляев В. Туркменская музыка. 1-2 тома. Алматы, 2003; Karomatov F. O'zbek xalq musiqasi merosi. XX asr. 1-2 kitob. Toshkent, 1978, 1983; Karomatov F., Hurdjanov N. Музыкальное искусство Памира. 1-2 кн. М., 1978, 1986; Гафурбеков Т. Фольклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчества. Ташкент, 1984; Дюшалиев К. Песенная культура кыргызского народа. Бишкек, 1993; Гуллыев Ш. Туркменская музыка. Алматы, 2003 va boshq.

B.X.Karмышsheva, G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel, E.Rtveladze, Q.Shoniyozov, A.Hakimov, E.Gyul, R.Abdullaev kabi olimlarning tadqiqotlarida tadqiq etilgan<sup>5</sup>.

Muzayyana Alaviyaning “O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari” monografiyasida marosim qo‘shiqlarining qadimiyligi, janr va badiiy xususiyatlari; B.Sarimsoqovning “O‘zbek marosim folklori” yirik ilmiy ishida qadimiy urf-odatlar, e’tiqodiy tasavvurlar, so‘zning sehrli qudrati; M.Jo‘raevning “O‘zbek mavsumiy marosim folklori”, “Navro‘z bayrami” kabi kitoblarida marosim folklorining shakllanish jarayoni, xalq taqvimining genezisi, dehqon va chorva mavsumining o‘ziga xos xususiyatlari, Navro‘z bayrami masalalarining ayrim vohalarga xos jihatlari ham yoritilgan.

H.Ismoilovning “O‘zbek to‘ylari”, M.Sattorning “O‘zbek udumlari”, Q.Nasriddinovning “O‘zbek dafn va ta’ziya marosimlari”, T.Jovlievning “An’analar – hayot sabog‘i” kabi kitoblarida o‘zbek xalqining udum va marosimlari o‘z ifodasini topgan. Yuqoridagi nomlari zikr etilgan olimlar xalq marosimlari va qo‘shiqlarining o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, poetikasi kabi masalalarni tadqiq etadilar. Lekin ularda marosim qo‘shiqlaridagi mazmun va shakl uyg‘unligi, musiqiy til jihatlari bo‘lmish ohang, ritm, obraz hamda ifoda kabi qo‘shiqni tashkil etuvchi vositalarning joylashishi, yaxlit asar sifatida shakllanishi kabi masalalar tadqiqotchilarning diqqat markazidan chetda qolib kelgan.

Q.Panjievning “Surxondaryo viloyati o‘zbek xalq qo‘shiqchilik ijodiyoti” mavzusidagi dissertatsiyasida (2010, San’atshunoslik ITI) voha qo‘shiqchilik ijodiyotining umumiy manzarasi yoritilgan. Asosiy e’tibor viloyat tumanlarining musiqiy xaritalari, chorvachilik, hunarmandchilik, turli mavzudagi qo‘shiq va aytimlarga qaratilgan. Faqat dissertatsiyaning uchinchi bobida mavsumiy, oilaviy marosimlar haqida ma’lumotlar berilgan bo‘lib, qo‘shiqlarning marosimlar bilan bog‘liqligi, genezisi, marosim qo‘shiqlarining janrlar tarkibi yoritilmagan; qo‘shiqlarning so‘z matnlari tahlil etilgan; qo‘shiqlarning nota namunalari berilgani bilan san’atshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etilmagan.

Surxon vohasi musiqa san’ati bo‘yicha XX asrning ikkinchi yarmidan kompleks folklor ekspeditsiyalari (F.Karomatov rahbarligida), XXI asrdan boshlab YuNYeSKO hamkorligida Boysun (2003-2004 va O‘zbekiston vohalari (NMM) bo‘yicha ilmiy ekspeditsiyalari (2012-2014), R.Abdullaev va A.Hakimov rahbarligida) o‘tkazilishi O‘zbekiston xalqlari, birinchi navbatda, Surxondaryo viloyatidagi etnik guruhlar va badiiy madaniyatni san’atshunoslik nuqtai nazaridan har taraflama chuqur o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. To‘plangan manbalar bo‘yicha nomoddiy madaniy meros namunalari o‘ziga xos xususiyatlari tahlil

---

<sup>5</sup> Гумилёв Л.Н. Древние тюрки. М., 1967; Кармышшева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М.,1976; Пугаченкова Г.А, Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. М.,1982; Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культура Центральной Азии. Ташкент, 2006; Shoniyozov Q.Sh. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. Toshkent, 2001; Tursunov S. va boshq. Surxondaryo tarixi. Toshkent, 2004; Хакимов А., Гюль Э. Байсун. Атлас художественных ремесел.Ташкент, 2006; Абдуллаев Р.С. Байсун. Традиционная музыкальная культура. Ташкент, 2006; Абдуллаев Р.С. Обряд и музыка в контексте культуры Узбекистана и Центральной Азии. Ташкент, 2006; Узбеки. Серия «Народы и культуры». М., 2011.

qilingan dastlabki ilmiy tadqiqotlar chop etildi<sup>6</sup>. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ularda alohida Surxon marosim qo‘shiqchiligi o‘ziga xos san‘at hodisasi sifatida o‘rganilmagan. Bu borada yirik musiqashunos-olim R.Abdullaevning “Obryadovaya muzyka Sentralnoy Azii”, “Obryad i muzyka v kontekste kultury Uzbekistana i Sentralnoy Azii”, “Baysun. Traditsionnaya muzykalnaya kultura” bizning dissertatsiyamizda esa asosiy manba bo‘lib, ularga tayangan holda (marosim va marosim musiqasining genezisi, an’anaviy madaniyatdagi o‘rni va ahamiyati, ularning janrlar tasniflanishi, tahliliy uslublari) Surxon marosim qo‘shiqlari hamda Surxon musiqiy tili, shevasi haqida ushbu tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

Surxon marosim qo‘shiqlarini yanada chuqurroq o‘rganish maqsadida 2000-2007 yillar davomida dissertatsiya muallifi tomonidan Surxondaryo viloyatining barcha tumanlari (Boysun, Sho‘rchi, Oltinsoy, Sariosiyo, Uzun, Denov) bo‘ylab folklor ekspeditsiyalari uyushtirildi.

Ular natijasida voha (mahalliy) marosimlari va qo‘shiqlari haqida ko‘pgina materiallar to‘plandi: she‘riy matnlar, marosimlarni o‘tkazish tartibi, hozirgi kungacha saqlangan urf-odatlar, marosimlar, udumlarning xalqimiz hayotiga tadbiq etilishi, ishtirokchi va ijrochilar haqida ma‘lumotlar, foto, video- va audioyozuvlar qilindi, marosim ko‘shiqlarining nota matnlari tayyorlandi. Shu bilan birgalikda ularning o‘ziga xos xususiyatlari, musiqiy shevaga xos bo‘lgan ichki vositalari ham yuzaga chiqarildi. Ekspeditsiya materiallari nota to‘plamlari shaklida – “Surxon qo‘shiqlari” I-III kitoblari, “Qadim Surxon navolari”, “Metar navolari”, “Surxondaryo ijodkorlari”, “Folklor qo‘shiqlari” kabi risola va o‘quv qo‘llanmalarida, tadqiqot mavzusiga oid ilmiy maqolalar mahalliy va xorijiy jurnallarda nashr etildi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston davlat konservatoriyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek musiqasi tarixi nazariyasini o‘rganish va yosh avlodni milliy musiqi ruhida tarbiyalash” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o‘zbek marosim qo‘shiqlarining (Surxon vohasi marosim qo‘shiqlari misolida) janrlar tarkibi, musiqiy-poetik tabiati, genetik asoslari, o‘ziga xos badiiy xususiyatlari, musiqiy tili, ijrochilik an‘analarining o‘rnini aniqlash hamda o‘zaro ta‘sir tamoyillarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Surxon vohasi marosim qo‘shiqchiligining shakllanishi, rivojlanishini, genetik asoslarini aniqlash, ularning lokal va janrlar xususiyatlarini tasniflash;

marosim qo‘shiqchiligida so‘z va kuy mutanosibligi, ohang tuzilmalari, musiqiy til va sheva xususiyatlarini aniqlash;

---

<sup>6</sup> Кароматов Ф. Узбекская инструментальная музыка. Наследие. Ташкент, 1972; История и традиционная культура Байсуна. Ташкент, 2005; Хакимов А, Гюль Э. Байсун. Атлас художественных ремесел. Ташкент, 2006; Абдуллаев Р.С. Байсун. Традиционная музыкальная культура. Ташкент, 2006; Abdullaev R. Intangible Cultural Heritage Safeguarding Efforts in Uzbekistan. Seoul, 2010, 2015; Abdullayev R., Hakimov A., Toshmatov O‘. va boshq. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi. Toshkent, 2017.



Surxon marosim qo'shiqlarining o'zbek xalq musiqa ijodiyotidagi o'zni, umumiy va o'ziga xoslik jihatlarini ko'rsatib berish;

Surxon marosim qo'shiqlarining zamonaviy turmush sharoitidagi o'zni, saqlanishi, rivojlanishi, umumxalq bayramlari va marosimlarida, folklor ansambllari repertuarlarida qo'llanilishi, badiiy jarayonda ularni targ'ib etish uslublarini ochib berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Surxon vohasi marosim qo'shiqchiligi, o'zbek musiqa madaniyatida marosimlar bilan bog'liqligi tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Surxon vohasi marosim qo'shiqlari janrlar tasnifi, ularning ichki qonuniyatlari hamda ijrochilik uslublari, o'ziga xos musiqiy tili kabi masalalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya mavzusini yoritishda tasniflash, qiyosiy-tarixiy, nazariy, tahliliy usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Surxon vohasi uslubi umumo'zbek uslubi zaminida yuzaga kelgani, har bir qo'shiqda vohaning o'ziga xos mavsumiy, oilaviy marosimlar, an'analar bilan bog'liq qo'shiqchilik san'atida ijtimoiy hayot, tarixiy sharoit, tabiatga bo'lgan munosabatlar, e'tiqod va tasarruflar o'z izini qoldirgani, bu hodisalar qo'shiq va aytimlar nomlarida, she'riy va musiqiy matnlarida, xususan, marosim qo'shiqlari musiqiy tili, ijro usullari va vositalari misolida o'z aksini topgani ko'rsatib berilgan;

Surxon vohasi qo'shiqlarida tarixiylik juda kuchliligi, ibtidoiy hayotga aloqador chorvachilikka oid janrlar va cholg'ular saqlanganligi, ularda ayrim mifologik obrazlar uchrashi mavsumiy va oilaviy marosimlar bilan bog'liq marosim qo'shiqlaridan badik, qutlov, shohi naqshband, sust-xotin, marsiya, xuyollo kabi janrlar faqatgina ushbu hududga xos lokal xususiyat(til va ijro)lar ekanligi aniqlangan;

Surxonga xos musiqiy til so'z va kuy mutanosibligi, etnosga xos ijrochilik usullari, qo'shiqchilikning marosimga xos ijodkorlik va ijrochilik an'alarining tili va madaniyatining mushtarakligi ochib berilgan;

Surxon marosim qo'shiqlari hududda yashovchi etnoslar (qo'ng'iroq, loqay, qatag'on va boshqalar)ning janr, ijro uslublariga ko'ra maishiy qo'shiq ("Sust xotin", "Yaqqu yaq" va h.k.)lari boshqa voha folklor-etnografik ansambllari repertuaridan joy olganligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o'zbek marosim qo'shiqlarining Surxon vohasiga xos tarixiy, tasnifiy va tahliliy jarayonlar negizida o'zbek ijrochilik amaliyotidagi shakllari hisoblab chiqilgan;

marosim qo'shiqlarida ijodkorlik va ijrochilik an'analari uchun zarur bo'lgan uslubiy ishlanmalarni yaratish imkonini beradi;

Surxon vohasiga xos marosim qo'shiqlarini ommaviy axborot vositalarida targ'ib va tashviq qilishda muhim manba vazifasini bajaradi;

"Folklorshunoslik", "An'anaviy o'zbek musiqasi asoslari" kabi fanlar bo'yicha musiqiy ta'lim, cholg'u ijrochiligi talabalari ta'lim olishlari jarayonida keng amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Marosim qo‘shiq-lari xususidagi ma‘lumotlarni o‘zida jamlagan manbalarning ishonchliligi, xulosalarning gumanitar fanlarda sinovdan o‘tgan uslublar, tarixiy-madaniy, tasniflash, etnomusiqashunoslikka oid qiyosiy-tipologik va nazariy-tahliliy kabi usullar bilan asoslanganligi, tadqiqot ishida yozma manbalar, ilmiy adabiyotlar, ko‘plab fantalogik (ekspeditsiya jarayonida to‘plangan) materiallardan foydalanilganligini, zamonaviy jarayonni (marosim, urf-odat, bayramlar, folklor ansambllari faoliyati) kuzatish natijalariga asoslanganligi, etnik marosim va musiqiy an‘analar asosida ijodkorlik va ijrochilik faoliyatlarini olib boruvchi jamoalarning repertuari va uslublari tahliliga tayanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati milliy mafkuramiz shakllanayotgan bir davrda boy madaniy merosga ega bo‘lgan xalqimiz qadriyat-lari, an‘analari, badiiy san‘at turlari va janrlari, madaniyatimizning milliy o‘ziga xosligi va xalq ijodiyotini chuqur, ilmiy asoslari yaxlit tizimda o‘rganilib, uni xalq ma‘naviy mulkiga aylantirishga, yoshlarda milliy g‘urur, iftixor tuyg‘ularini rivojlantirish va mustahkamlash bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyadagi ilmiy ma‘lumotlarning O‘zbekiston musiqa madaniyati, ayniqsa, O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi bo‘yicha olib boriladigan istiqboldagi tadqiqotlarda qo‘l kelishi, metodologik yondashuvlardan an‘anaviy o‘zbek musiqasining qadimiy qatlamlari bo‘lmish marosim qo‘shiqchilik san‘atini o‘rganishda keng foydalanish mumkinligi, shuningdek, viloyatlar folklor va o‘quv xor jamoalari repertuarlariga marosim qo‘shiq-larini (an‘anaviy va ko‘p ovozi yo‘nalishda) o‘rganish, foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Surxon vohasi uslubi umumo‘zbek uslubi zaminida yuzaga kelgani, har bir qo‘shiqda vohaning o‘ziga xos mavsumiy, oilaviy marosimlar, an‘analar bilan bog‘liq qo‘shiqchilik san‘atida ijtimoiy hayot, tarixiy sharoit, tabiatga bo‘lgan munosabatlar, e‘tiqod va tasarruflar o‘z izini qoldirgani, bu hodisalar qo‘shiq va aytimlar nomlarida, she‘riy va musiqiy matnlarda, xususan, marosim qo‘shiq-lari musiqiy tili, ijro usullari va vositalari misolida o‘z aksini topishiga oid muhim ilmiy ma‘lumotlar “Folklor qo‘shiq-lari” o‘quv qo‘llanmasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2014 yil 23 avgustdagi 335-son nashr ruxsatnomasi). Natijada yosh olimlar marosim qo‘shiq-lari haqida yanada yangi ilmiy ma‘lumotlarga ega bo‘lishlariga erishilgan;

Surxon vohasi qo‘shiq-larida tarixiylik juda kuchliligi, ibtidoiy hayotga aloqador chorvachilikka oid janrlar va cholg‘ular saqlanganligi, ularda ayrim mifologik obrazlar uchrashi, mavsumiy va oilaviy marosimlar bilan bog‘liq marosim qo‘shiq-laridan badik, qutlov, shohi naqshband, sust-xotin, marsiya, xuyollo kabi janrlar faqatgina ushbu hududga xos lokal xususiyat(til va ijro)lari haqidagi ma‘lumotlar Surxondaryo viloyat teleradiokompaniyasining “Diyor yangiliklari” teleko‘rsatuvining ssenariysida foydalanilgan.

(Surxondaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2022 yil 11 avgustdagi 01-01-89-son ma'lumotnomasi). Natijada tinglovchilar shu asosda mavsumiy va oilaviy marosim musiqasi bilan tanishish imkoniyatini bergan;

Surxonga xos musiqiy tili soʻz va kuy mutanosibligi, etnosga xos ijrochilik usullari, qoʻshiqchilikning marosimga xos ijodkorlik va ijrochilik anʼanalarining tili va madaniyatining oʻziga xos mushtarakligi ochib berilganligi haqidagi ma'lumotlar Surxondaryo viloyat teleradiokompaniyasining “Diyor yangiliklari” telekoʻrsatuvining ssenariysida foydalanilgan (Surxondaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2022 yil 11 avgustdagi 01-01-89-son ma'lumotnomasi). Natijada tinglovchilar shu asosda musiqiy qonuniyatlar, ijrochilik usullari haqidagi yangi ilmiy ma'lumotlarga ega boʻlgan;

Surxon marosim qoʻshiqlari hududda yashovchi etnoslar (qoʻngʻirot, loqay, qatagʻon va boshqalar)ning janr, ijro uslublariga koʻra maishiy qoʻshiq (“Sust xotin”, “Yaquq yaq” va h.k.)lari boshqa voha folklor-etnografik ansambllari repertuaridan joy olganligi dalillanganligi boʻyicha takliflar “Folklor qoʻshiqlari” oʻquv qoʻllanmasida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2014 yil 23 avgustdagi 335-son nashr ruxsatnomasi). Natijada marosim qoʻshiqlari boʻyicha yangicha qarashlar va nazariy xulosalar qilingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning eʼlon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 24 ta ilmiy ish, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola (7 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) nashr qilingan. Tadqiqot materiallari asosida bir qator kitob (3 ta uslubiy qoʻllanma, 2 ta risola, 1 ta oʻquv qoʻllanma)lar (“Surxon qoʻshiqlari” uch kitobdan iborat nota toʻplamlari, “Qadim Surxon navolari”, “Metar navolari” risolalari, “Folklor qoʻshiqlari” oʻquv qoʻllanmasi), ilmiy maqolalar tayyorlanib nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat boʻlib, dissertatsiyaning asosiy matni 124 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Dissertatsiyaning kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslanib, uning maqsad va vazifalari bayon qilingan, dissertatsiya obʼekti va predmeti koʻrsatilib, ilmiy-tadqiqot ishi oldiga qoʻyilgan vazifaning oʻrganilganlik darajasi, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, olingan natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi boʻyicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Mavsumiy marosim qo‘shiqlari**” deb nomlangan bobning birinchi bo‘limida Surxon vohasining qadimiy tarixi, etnografiyasi, madaniyati, xalq ijodiyoti, turmush tarzi, tarixiy madaniyati, mehnat mashg‘ulotlari, marosimlari, urf-odat va bayramlarining o‘ziga xosligi jihatlari tarixiy manbalar asosida keng yoritilgan.

Jumladan, vohaga xos mavsumiy va oilaviy marosimlar shakllanishi qadimdan voha aholisining turmush va mehnat faoliyati bilan bog‘liq kechgan. Shu bois ushbu jarayonda marosim aytim qo‘shiqlari va cholg‘u kuylari xalq tomonidan yaratilib, turli davrlarda takomillashib, sayqal topib, hozirgi kungacha saqlanib, o‘ziga xos Surxon marosim qo‘shiqchilik san‘atini tashkil etadi.

Bobning ikkinchi bo‘limi “**Surxon marosim qo‘shiqlari tasnifi**” deb nomlanib, bunda marosimlarning inson, oila, jamoa hayotidagi o‘rni, ularning xalqimiz turmush tarzi, etnik tarixi, urf-odatlari, e‘tiqodlar bilan uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘lishi, marosim qo‘shiqlarining o‘ziga xos lokal xususiyatlari, mehnat jarayoni, oilaviy marosimlar, diniy e‘tiqodlar bilan aloqadorligi ko‘rsatilgan.

Surxon marosim qo‘shiqlari asosan uch turkumga bo‘linadi: mavsumiy-marosim, oilaviy-maishiy qo‘shiqlar va diniy ibodat aytimlari. Ularning har biri o‘z navbatida ma‘lum turlari va janrlardan iborat bo‘lib, xilma-xil ijro usuli, musiqiy vositalar rang-barangligi, ayniqsa, shevasining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularda tarixiy voqealarga munosabat, mavsumiy marosimdagi urf-odatlar o‘z ifodasini topgan. Marosim qo‘shiqlarining janr tarkibi boy: “Boychechak”, “Yo, ramazon”, “Sust xotin”, “Do‘rsi-do‘rsi” singari turli mavzulardagi keng qamrovli qo‘shiqlari mavjud. Har birida kuy va so‘z mutanosibliigi va uzviyligi musiqiy dialektikasining Surxon shevasi bilan bog‘liqligidadir.

Ushbu bobning uchinchi bo‘limi “**Mavsumiy marosim qo‘shiqlari va ularning janrlar tarkibi**” deb nomlanib, mavsumiy marosimlar va qo‘shiqlarning mohiyati, tarixiy ildizlari, o‘tkazilish tarzi, janr tarkibi, asosan xalqning turmush tarzi, yil fasllari va tabiat hodisalari, mehnat turlari bilan aloqadorlikda yuzaga kelishi, ularning qadimiy e‘tiqodiy qarashlar bilan bog‘liqligi nuqtai nazardan ahamiyatliligi hamda Surxon vohasiga xos musiqa uslubida mavsum-taqvim va mehnat jarayoni bilan bog‘liq qo‘shiqlar salmoqli o‘rin tutishligi yoritilgan.

Har bir turkum marosim qo‘shiqlari o‘ziga xos janrlar tarkibiga ega bo‘lib, ma‘lum guruh va turlarga bo‘linadi. Mavsumiy marosim qo‘shiqlari mazmun jihatidan, bajarayotgan vazifasi va ijro uslubiga ko‘ra quyidagilarga tavsiflanadi:

1. Umumxalq marosim va bayramlari bilan bog‘liq, masalan, Navro‘z qo‘shiqlari (“Navro‘z”, “Jarchilar qo‘shig‘i”, “Muborakbod”, “Yil boshi”, “Navro‘znoma”, “Sumalak”, “Boychechak”, “Lola sayli”, “Hey lola”, “Halinchak” va b.).

2. Yil fasli, ya‘ni mavsum va mavsumiy-mehnat marosimi qo‘shiqlari - bahor, yer haydash, ekin ekish, yoz, kuz, qish haqida (“Shoxmoylar”, “Qo‘sh haydash”, “Lolajon”, “Dehqonlar qo‘shig‘i”, “Sust xotin”, “Turna keldi”, “Hamal”,

“O‘roqchi”, “Mayda”, “Shamol chaqirish”, “Choy momo”, “Qor chaqirish”, “Do‘rsi-do‘rsi”, “Shohi Naqshband” va b.).

3. Yilnoma va taqvim bilan bog‘liq qo‘shiqlar (“Yo ramazon” yoki “Yo rabbiman”).

Mavsumiy marosim qo‘shiqlariga xos bo‘lgan jihatlar quyidagilardan iborat:

1. Ohang asosida kuy tuzilmasi rivoj olishi; bu jarayonda yangi sifatli ohangning so‘z matni mutanosibligida yuzaga kelishi.

2. Kuy rivoji ikki asosiy ohang asosida tuzilgan bo‘lib, ular “chaqiriq ohangi” (“Sust xotin”, “Navro‘z”, “Muborakbod”, “Jarchi” qo‘shig‘i va b.) va “so‘rov ohangi” (“Sust xotin”, “Boychechak” va boshqalar)dan iborat. Bu ohanglar Surxon vohasi musiqiy shevasini tashkil etishga zamin bo‘lib xizmat qiladi.

3. Kuy asosini “jarchilik (chaqiriq) ohangi” tashkil etilishi bilan bog‘liq. Bu ohang pastki sekunda va kvarta sakrama orqali tashkil topgan bo‘lib, 2/4 o‘lchovida tasvirlangan (Navro‘z qo‘shiqlari va b.). Umuman subkvarta ohangi ko‘pgina qo‘shiqlar tuzilmasini tashkil etgan va Surxon vohasining musiqiy tiliga umuman xos ijro uslubidir.

4. Qo‘shiqlarning asosini tashkil etuvchi ohanglar “voha ohang-kuy lug‘ati”ga mansubdir. Shuningdek, ushbu bo‘limda mavsumiy marosimlarga oid qo‘shiqlarning tahlili, ohangi, o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatilgan.

Bobning to‘rtinchi bo‘limi “**Mavsumiy-mehnat marosim qo‘shiqlari**” deb nomlanib, unda yilning to‘rt fasli bilan bog‘liq yuzaga kelgan marosimlar va ular bilan bog‘liq holda yaratilgan qo‘shiqlarning tahlili, ahamiyati, mehnat jarayoni bilan bog‘liq jihatlari, so‘z va kuy mutanosibligi, ijro o‘rni, dinlar bilan aloqadorligi ko‘rsatilib, musiqiy sheva xususiyatlari ham yoritildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Oilaviy marosim qo‘shiqlari va aytimlari**” deb nomlanib, bunda oilaviy marosimlarning yaratilish tarixi, qo‘shiqlarning marosimlar bilan bog‘liqlik jihatlari, marosimlardagi qo‘shiq-aytim munosabatlari, janrlar jihatidan ma‘lum guruhlariga bo‘linishi ko‘rsatilgan. Surxon oilaviy marosim qo‘shiqlari uch guruhga bo‘linadi:

1. To‘y marosim qo‘shiqlari.

2. A‘za-motam aytimlari.

3. Oilaviy-maishiy marosim aytimlari.

Ushbu bobning birinchi bo‘limi “**To‘y marosim qo‘shiqlari tasnifi**” deb nomlanib, ular ma‘lum tur va janrlarga bo‘linadi, jumladan, farzand tug‘ilishi va tarbiyasi, o‘smirlik va balog‘at bilan bog‘liq bo‘lgan “Beshik to‘y”, “Soch olar to‘y”, “Sunnat to‘y”, “Muchal to‘y”, “Nikoh to‘y”lar. Mana shu marosimlar bilan bog‘liq holda yaratilib, ijro etiladigan qo‘shiqlar “To‘y marosim qo‘shiqlari” deyiladi. Ular o‘z mavzu va funktsiyalari bo‘yicha ma‘lum janrlardan iborat: to‘y-marosim qo‘shiqlariga “Hay, yorey, hay do‘st”, “O‘lan”, “Yor-yor”, “Kelin salom”, “Paxtaro gir”, “Yaquq-yaq”, “Um-ufu”, “Layla-lo”, “Aylansin yor”, “Yor-yorone”, “Muchal qo‘shig‘i” va boshqalar kiradi. Tahlil qilingan qo‘shiq namunalari shuni ko‘rsatdiki, to‘y marosim qo‘shiqlarining turli ohanglari xalq orasida shu qadar singib ketganki, ular vohaning musiqiy shevasini tashkil etadi. Bu o‘z navbatida Surxon musiqiy tilini (o‘zbek va tojik elatlari uzviyligida)

namoyon etadi: uning xususiyatlarini ohang tuzilishi, kuy shakli, lad va ritmik holatlarda ko‘rishimiz mumkin (o‘ziga xoslik va umumo‘zbek jihatlari).

Ushbu bobning ikkinchi bo‘limi **“Aza-motam va oilaviy-maishiy marosim aytimlari”** deb nomlangan. A‘za-motam marosimlari, yig‘i-yo‘qlov aytimlari, marsiya qo‘shiqlari ham Surxon vohasi aholisi orasida keng tarqalgan bo‘lib, vafot etganlarning oila a‘zolari, yaqin qarindoshlari tomonidan marosim doirasida aytiladi. Bu marosimlarning ham alohida ijrochilari – yig‘ichi, go‘yandalari bo‘lib, ular vafot etgan kishining yaxshi sifatlarini qo‘shgan holda motamdorlarning o‘rtasiga tushib ichki kechinmalarini ifodalaydi. Aza-motam aytim-qo‘shiqlari badiiy yuksak, tili sodda, iboralari o‘tkir, kuylari mungli va ko‘pchilikni yig‘lata oladigan, badihago‘ylik va erkin uslubda, fojiviy va dramatik ta‘sirli bo‘ladi. Bobda a‘za-motam, oilaviy-maishiy marosimlar va ulardagi aytimlar tarkibi tahlil qilingan. Yig‘i va yo‘qlovlar, sadr va marsiyalar a‘za-motam marosimi folklorining bir-biridan farqlanuvchi mustaqil janrlari ekanligi, ularning har biriga xos eng muhim jihatlari, ichki musiqiy qonuniyatlari va vohaga xos ijro uslublari aniqlanib, tadqiq etiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Surxon musiqiy tili xususiyatlari”** deb nomlanib, bunda qo‘shiqlarning semantik xususiyatlari asosida vohaga xos musiqiy tili (shevasi) tahlil etiladi.

Surxon vohasida asosan qadimiy ko‘chmanchi o‘zbek va tojik urug‘laridan iborat bo‘lgan mahalliy elatlarning etnik tarkibiga mansub aholi istiqomat qilganligi sababli bu hududda shakllangan va ommalashgan marosim aytim-qo‘shiqlarida qadimiy o‘zbek elati tipidagi qipchoq-qo‘ng‘irot qabilalarining marosimlari, urf-odatlarini, rasm-rusumlari, musiqiy-poetik tafakkuri an‘analari va badiiy-estetik qarashlari yetakchilik qiladi. Bu esa Surxon vohasi marosim aytim-qo‘shiqlarining lokal xususiyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlagan. Qadimiy asoslarga ega bo‘lgan bunday lokal an‘ana voha musiqa folklorining o‘ziga xos belgilaridan biri sifatida hozirgi kunga qadar o‘zining spetsifik xususiyatlarini saqlab kelmoqda. Surxon marosim folklori umumo‘zbek folklorida mavjud bo‘lmagan janrlar, faqat shu hududgagina xos bo‘lgan original aytim-qo‘shiqlar, ularning ijro uslubi, o‘rni va maishiy yo‘nalishi bilan bog‘liq muayyan alohidaliklarga egaligi bilan umumo‘zbek musiqasidagi o‘ziga xos lokal tip sifatidagi hodisa ekanligi ma‘lumdir. Chunki marosim qo‘shiqlari ularning marosimlar bilan aloqadorligi sababli muayyan bir janrga mansub aytim-qo‘shiqlar orasida ham uchrashi mumkin. Bu haqidagi fikrlar tadqiqotning yuqori fasllarida tahlil etilgan namunalarda kuzatildi. Masalan, o‘zbek marosim folkloridagi aytim-qo‘shiqlarda farzand tug‘ilishi, sunnat va nikoh to‘ylari, yomg‘ir, qor, shamol chaqirish, davolash, yil fasli, yer haydash, Navro‘z va boshqa marosimlar bilan bog‘liq aytim va qo‘shiqlarning ichki turkumlanishida namoyon bo‘lgan. Biroq nikoh va beshik to‘yi yoki mavsumiy-mehnat marosimlari va bu silsilada aytiladigan naqsh, yil boshi, shohmoylar, huyya yoki huyollo qo‘shiqlari, jahr aytimlari yoki shohi naqshband cholg‘u kuylari, metar cholg‘usi esa faqat Surxon hududiga xosdir.

Marosim aytim-qo‘shiqlarining har birini alohida-alohida ilmiy tahlil qilish asosli xulosalarga olib keladi:

1. Surxon vohasida qadimdan etnik-madaniy birlashma xos bo'lgan, ammo o'zbek millatini shakllanish jarayoni asosiy o'rin egallab kelgan. Tarixiy rivojlanishning umumiyligidan kelib chiqqan holda Surxon elatlarning moddiy va badiiy madaniyatlari xususiyatlarining bir-biriga o'xshashligini kuzatish mumkin. Bu o'z navbatida o'zbek-tojik urug'larining birligining shakllanishiga olib kelganki, unda til, madaniy-xo'jalik va etnik o'ziga xosliklarni bir-biridan ajratib turuvchi chegara chizig'ini belgilash mushkul. Shu tufayli ushbu tadqiqot orqali nafaqat lokal, balki ma'lum darajada umum-o'zbek musiqiy tilini (kengroq musiqiy fikr, musiqiy tafakkurni) aniqlashga yordam beradi.

2. Tahlil qilingan musiqiy namunalar ushbu vohada o'ziga xos sheva borligini aniqlab, marosim musiqasining semantik xususiyatlarining muvofiqligini ochib beradi.

